

OTA-ONA VA MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASINING BIRGALIKDAGI FAOLIYATI SAMARASI

Sa'dullayeva Farida Nurkasim qizi

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti,

“Maktabgacha ta'lism” yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Hamrayeva Nigora Akramovna,

Sirg'ali tumanidagi 284-umumta'lim maktabi pedagogi

Annotatsiya

Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lism-tarbiya berish jarayonida pedagoglar va ota-onalar va maktabgacha ta'lism muassasasining birgalikdagi faoliyatidan kutiluvchi samaralar haqida so'z yuritildi.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lism muassasasi, tarbiya jarayonining qonuniyatları, milliy pedagogika, farzand tarbiyasi.

Ota-onalar ta'limga muhim sherkalaridir. Ular farzandlarining ta'limga bo'lgan munosabatiga ta'sir qiladi va uyda o'rganishni qo'llab-quvvatlaydi. Ular uy va MTM o'rtaqidagi hayotiy aloqadir. Va ular MTM hayotiga aralashganlarida, ular bizning MTMlarimizni o'rganish, o'sish va rivojlanish uchun yaxshi joylarga aylantiradi.

Oilada bolalar o'rtaqidagi o'zaro munosabatlari tizimi birgalikda uyushtiriladigan o'yin, sayrlarda yuqori darajada shakllanadi. Bolalar nutq madaniyatini shakllantirishda oila a'zolari va tengdoshlari bilan bo'ladigan munosabatlar muhim rol o'ynaydi. Tarbiya qanchalik erta boshlansa, hosili ham shuncha barvaqt ko'zga tashlanadi. Shuning uchun ota-onalar va ta'lism muassasalari tarbiyachilar hamda pedagoglarning vazifasi yosh avlodni aqlan yetuk, jismonan sog'lom, axloqan pok, barkamol inson qilib tarbiyalashdan iboratdir. Shuni ta'kidlash joizki, bola tarbiyasi bilan jiddiy shug'ullangan ota-onalarning farzandlari ta'lism muassasasida o'z imkoniyatlarini mashg'ulot jarayonida qiyalmasdan ko'rsata oladi.

Oila va ta'lism muassasaslarining uzluksizligi bolani nafaqat jismoniy va aqliy jihatdan rivojlantiradi, balki uning ma'naviy shakllanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.



Barkamol avlod tarbiyasi, farzand tarbiyasida ota-onalarning ma'suliyatini yanada oshirish ularni bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish ayni paytda dolzarbdir. Bundan tashqari asosiy ta'lif o'chog'i bu jamiyatning bo'g'ini - oila hisoblanadi. Ya'nii oiladagi muhit, tarbiya bolaning hayotida muhim qismdir. Zamon rivojlangani sari ota-onalik mas'ulyati ham juda keng tushunchaga ega bo'lmoqda. Ota - ona farzandini har tomonlama ta'mimlaydi, tarbiyalaydi va ta'lif olishiga imkon yaratadi. Ayniqsa, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar bilan MTT va oila hamkorligining o'rni beqiyosdir.

MTTga farzand ilk qadam qo'ygan zahoti uning kelajak poydevori qurib boshlanadi va ushbu poydevorda MTT va oila birdek ma'suliyatga ega bo'lishadi.



1-rasm. Otaonalar bilan o'zaro munosabatlari texnologiyasi.

MTT va ota-onalar o'rta sidagi ijobiy, qo'llab-quvvatlovchi va ochiq munosabatlari bo'lishi judayam zarur. Bundan tashqari, shu paytgacha bo'lgan natijalar shuni ko'rsatadiki, ota-onalar ishtiroki hamda tarbiyachi bilan bo'lgan hamkorlik ta'lif jarayonini ancha yaxshilaydi.

MTT va ota-onalarning o'zaro munosabatlari, o'zaro yordam, ishonch va hurmatni ham mustahkamlaydi. Malumki, ota-onalar hamisha o'z farzandlarini bog'chada nimalar bilan band bo'lishlarini, qanday vazifalar va yangiliklar o'rganishlarini va tarbiyachining pedagogik mahoratlaridan boxabar bo'lib turishni xohlashadi.





Albatta, farzand tarbiyasida faqatgina bir taraf asosiy bo'g'in bo'lib qolmasligi kerak. Shunday ekan o'zaro hamkorlikning maqsadi ota -onalarni ham bolalar bog'chasi hayotiga jalg qilishdir. Hozirgi vaqtida ota-onalar uchun bolalar bog'chasing ochiqlik tamoyili amalga oshirilmoqda. Ushbu tamoyil ota-onalar o'z xohishlariga ko'ra ular uchun qulay vaqtida bolalar bog'chasiagi faoliyatlarni, tarbiyachilarning bolalar bilan muloqot qilish uslubi, guruh hayotiga kirishlari bilan erkin tanishishlari mumkin.

Bundagi mazmun mohiyat esa jamiyat oldida turgan yosh avlodni to'laqonli barkamol, bilimli, va zukko qilib tarbiyalashda har ikki tomonlarning hushyorligini oshirishdir.

MTT va oila o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning yangi yondashuvlari ota-onalarning malakasini shakllantirish, shaxsiy tarbiyalash tajribasining turli jihatlarini o'z ichiga oladi.

Hamkorlik an'anaviy va noan'anaviy shakllarda bo'lishi ham mumkin. Ya'ni, bunda turli shakl jarayonlarida ota-onalarni faollashtirish usullari qo'llaniladi. Tadbirlar, bayramlar, sayrlarda ota-onalarning ham o'rni bo'lishi va bolalar bilan turli xil shartlar bajarishi yoki umumiyl vazifaning bir qismini bajarishsa bu har bir tomon uchun foydali va samarali bo'ladi. Bu usullar ota-ona pozitsiyasini shakllantiradi , faolligini oshiradi va olgan bilimlarini yanada yangilashga farzandiga ko'maklashishiga sabab bo'ladi.

Hamkorlik bola tarbiyasida ham katta ahamiyatga ega. Ikki tomonlama berilayotgan ta'lim - tarbiya jarayonlari uning yanada rivojlanishiga turtki beradi. Shuningdek, avvalo, ota-ona farzandini nimalarga qiziqishi, uning qobilyatlari qaysi yo'nalishda ko'proq namoyon bo'layitganligiga e'tibor berib qaralsa va MTT bilan birgalikda bu qo'llab quvvatlansa yanada maqsadga muvofiq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Махаммадиев А. Т., Анварова М. Д. Творческий подход дошкольного преподавателя к образованию //Экономика и социум. – 2021. – №. 2-2. – С. 25-28.
2. Махаммадиев А. Т., Каххарова С. М. Мысление, сознание и грамотность современные философские вопросы речевого образования //Экономика и социум. – 2021. – №. 4-2. – С. 168-171.



3. Махаммадиев А. Т. Образование-источник новых идей, творческого мышления и нововведений //Профессиональное самоопределение молодежи инновационного региона: проблемы и перспективы. – 2018. – С. 156-157.
4. Abidovna X. D., Abduqodir o'g'li X. J. Ta'lim xizmatlarini takomillashtirishda rivojlangan mamlakatlar tajribasi // "Russian" Инновационные подходы в современной науке. – 2023. – Т. 9. – №. 1.
5. Abidovna X. D., Abduqodir o'g'li X. J. Ta'lim turlari va ularning amalga oshirilish mexanizmlari // "Germany" Modern scientific research: achievements, innovations and development prospects. – 2023. – Т. 9. – №. 1.
6. Asatillaevich A. B. The main tasks of teaching a student to youth lesson in relation to specialists //World Bulletin of Social Sciences. – 2022. – Т. 8. – С. 123-126.
7. Arziqulova S. Talim-tarbiyada mtm bilan ota-onha hamkorligi //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2021. – Т. 1. – №. 5. – С. 140-143.